



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No 7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari .....	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiyo yinlarning ahamiyati .....	38
Salimova Dilimira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'lima muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq Kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar .....	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature .....	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiyl xususiyatlari" mavzusida) .....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida .....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari .....	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish .....	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari .....	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar .....	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi .....	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	148
Mamadiyorov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli .....	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi .....	166
Xudoberganova Matluba Quisoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабирович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati .....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida .....	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamlı ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar .....	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes .....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroiil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvisatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari .....	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY- PEDAGOGIK MAHORATINI TEATR PEDAGOGIKASI VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJY VA MILLIY TAJRIBASI

Xudoyberanova Matluba Qulsoxatovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish masalasi yoritilgan. Xorijy (Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh) va milliy tajribalar asosida teatr pedagogikasining afzalliklari, imkoniyatlari, o'qituvchi shaxsining shakllanishiga ta'siri hamda uni amaliyotga joriy etish yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** teatr pedagogikasi, boshlang'ich ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, metodika, dramatizatsiya, sahna ijodi, xorijy tajriba, innovatsiya, o'qituvchi mahorati.

**Abstract:** This article examines the development of professional and pedagogical skills of future primary school teachers through the use of theater pedagogy. Based on foreign (Germany, the United Kingdom, the United States) and national experiences, the article analyzes the advantages, potential, and impact of theater pedagogy on the formation of a teacher's personality, as well as approaches to its practical implementation.

**Key words:** theater pedagogy, primary education, professional training, methodology, dramatization, stage creativity, international experience, innovation, teaching skills.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы развития профессионально-педагогического мастерства будущих учителей начальных классов посредством средств театральной педагогики. На основе зарубежного (Германия, Великобритания, США) и отечественного опыта проанализированы преимущества, возможности театральной педагогики, её влияние на формирование личности учителя, а также пути её внедрения в образовательную практику.


**Ключевые слова:** театральная педагогика, начальное образование, профессиональная подготовка, методика, драматизация, сценическое творчество, зарубежный опыт, инновации, педагогическое мастерство.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muloqt ko'nikmalarini mustahkamlash va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash bevosita pedagogik mahoratga bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun bu mahorat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu bosqichda bola bilim olishga, o'rganishga va ijtimoiylashishga intila boshlaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida teatr pedagogikasi vositalaridan foydalanish ularning kasbiy mahoratini oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Teatr faoliyati orqali o'qituvchining nutq madaniyati, emotsiional yetukligi, sahnaviy ko'nikmalar, didaktik yondashuvi va o'z ustida ishlash qobiliyati shakllanadi. Mazkur maqolada teatr pedagogikasi vositalari orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, xorijy va milliy tajribalari hamda ularning amaliyotdagi o'rni keng yoritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Germaniyada pedagogik oliy ta'lif muassasalarida teatr san'ati pedagogikani o'qitishning asosiy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. "Pädagogisches Theater" deb nomlanuvchi metodika orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat sahna asarlarini sahnalashtiradilar, balki ular yordamida o'quvchilarning psixologik portretini yaratishni ham o'rganadilar.



Buyuk Britaniyada esa drama va teatr elementlari maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lif tizimida keng qo'llaniladi. Masalan, Dorothy Heathcote tomonidan ishlab chiqilgan "Mantle of the Expert" yondashuvi o'qituvchini o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlikka undaydi.

AQShda teatr pedagogikasi ijtimoiy-emotsional o'qitishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mamlakatda ko'plab maktablarda "drama in education" loyihalari amalga oshiriladi. Ular orqali o'qituvchilar stressni boshqarish, hissiyotlarni anglash, empatiya va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini egallaydilar.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, teatr pedagogikasi xalqaro miqyosda o'qituvchilik kasbiga tayyorlashning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston ta'lif tizimida teatr pedagogikasidan foydalanish bo'yicha dastlabki tashabbuslar mavjud. Jumladan, Nizomiy nomidagi TDPU, Qo'qon DPI, Termiz DPI kabi oliy ta'lif muassasalarida pedagogik mahorat darslari doirasida dramatik mashg'ulotlar tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida o'qituvchilar malakasini oshirish va ijodiy yondashuvga tayangan innovatsion metodlarni qo'llash zarurligi alohida ta'kidlangan.

Biroq teatr pedagogikasi metodikasi hali keng joriy etilmagan. Buning asosiy sabablari quydagilardan iborat: kadrlar tayyorlashda ushbu yo'nalishga yetarli e'tibor berilmasligi, metodik qo'llanmalar va darsliklarning yetishmasligi, teatr va sahna pedagogikasi bo'yicha maxsus o'quv kurslarining yo'qligi.

Shunga qaramay, ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida teatr elementlaridan foydalangan holda o'quvchilarning diqqat-e'tiborini oshirish, darsni interaktiv tarzda o'tish hamda nutq madaniyatini shakllantirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishmoqdalar.

Teatr pedagogikasi – bu ta'lif jarayonida teatr elementlari va metodlaridan foydalangan holda o'quvchilar va pedagoglar bilan ishlash uslubidir. Ushbu yondashuv, asosan, dramatik faoliyatga asoslanadi: rolda o'ynash, sahna asarlarini yaratish, badiiy obrazlarni tahlil qilish, hissiy ifoda va nutq texnikasini rivojlantirish orqali shaxsiy hamda kasbiy o'sishni ta'minlaydi.

Teatr pedagogikasi pedagog va o'quvchi o'rtaida ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, o'z fikrini erkin ifoda-lash, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash, stress holatlarini yengib o'tish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ushbu metod o'qituvchining o'z shaxsiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etish, sahnnaviy harakatlar orqali bolalarning diqqat-e'tiborini jamlash, dars jarayonini jonlantirish va bilim berishda yangi yondashuvlarni izlash imkonini yaratadi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun teatr metodikasi asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar ularning kelajakdagisi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan kommunikativ, tashkiliy, psixologik va estetik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.



### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida asosan nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Maqola uchun zarur ma'lumotlar xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, amaliy tajriba tahlillari hamda mavjud adabiyotlar sharhi asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, kontent-tahlil va umumlashtirish usullari orqali ilmiy asosda tahlil qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda teatr pedagogikasining o'rni Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, har bir o'quvchining qobiliyati va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuv asosida faoliyat yuritish, ijodiy fikrlash hamda kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish kabi mezonlar bilan belgilanadi. Teatr pedagogikasi aynan shu ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.



Bo'lajak o'qituvchilar teatr mashg'ulotlari orqali:

- o'z nutqini, diksiyasini, ovoz ohangini va mimikasini takomillashtiradi;
- emotsional barqarorlikka erishadi va o'zini boshqarishni o'rganadi;
- jamoada ishlash, hamkorlik qilish, muammoni tahlil qilish va ijodiy yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi;
- muloqotga kirishishda ochiqlik, empatiya va madaniy sezgirlikni shakllantiradi;
- darsni sahnalashtirish orqali ta'lim jarayonini jonlantirish hamda o'quvchilarning faol ishtiropini rag'batlan-tirish yo'llarini egallaydi.

Shuningdek, pedagogik faoliyatda rol o'ynash, dramatik vaziyatlarni yaratish, badiiy matnlar asosida tahlil va ijro qilish kabi jarayonlar o'qituvchi shaxsining professionalligini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Teatr pedagogikasining amaliy qo'llanilishi: mashg'ulot namunasi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarda teatr elementlaridan foydalanish bo'yicha quyidagi mashg'ulot namunasi tavsiya etiladi:

- Mashg'ulot mavzusi: Nutq madaniyatini shakllantirishda dramatik topshiriqlarning roli.
  - Mashg'ulot maqsadi: Talabalarning sahna nutqi, hissiy ifoda, jamoaviy hamkorlik, rolda ishlash ko'nikmlarini rivojlantirish.
  - Mashg'ulotning asosiy bosqichlari:
    1. Kirish: Isinish mashqlari – talaffuz, mimika va ovoz ustida ishlash;
    2. Asosiy qism: Mini-spektakl sahnalashtirish – ertak, afsona yoki hikoya asosida jamoaviy sahna ko'rinishini tayyorlash;
    3. Yakuniy bosqich: Tahlil va refleksiya – ishtiroychilarining o'z fikrini bayon qilishi, tajriba almashishi.
- Bunday mashg'ulotlar orqali talabalar o'zlarining ichki dunyosi, emotsiyonal ifodasi, liderlik salohiyati va ta'sirchan pedagogik nutqini rivojlantirishga erishadilar.

## MAJVUD MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda teatr pedagogikasining bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida to'laqonli qo'llanilmasligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- oliy ta'lim muassasalarida teatr pedagogikasiga oid fanlar yoki maxsus kurslar mavjud emas;
- tegishli metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va teatrga oid darsliklar yetarli emas;
- amaliy teatr mashg'ulotlarini olib boruvchi mutaxassislar – sahna pedagoglari yetishmaydi;
- o'quvchilarining ota-onalari va jamoatchilik tomonidan teatrning tarbiyaviy hamda ta'limi ahamiyati yetarli darajada anglanmagan.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun "Teatr pedagogikasi asoslari" nomli maxsus kursni o'quv rejasiga joriy etish;
2. Dramatik metodlardan foydalangan holda dars ishlasmalari to'plamlarini yaratish;
3. Oliy ta'lim muassasalarida teatr laboratoriyalarini tashkil etish hamda malakali teatr pedagoglarini jalb etish;
4. Teatr-pedagogik yondashuvni aks ettiruvchi vebinar, trening va mahorat darslarini tizimli asosda tashkil etish;
5. Boshlang'ich sinflar uchun moslashtirilgan teatr texnikasi va metodikasini ishlab chiqish.

### Xulosa

Teatr pedagogikasi vositalari orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSh kabi davlatlar tajribasi shuni ko'ssatadiki, teatr metodikasi faqat sahna san'ati emas, balki o'qituvchining ichki dunyosini boyitish, o'z ustida ishlashga undash hamda shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vosisi sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston tajribasida ushbu yo'nalish hali rivojlanish bosqichida bo'lib, uni yanada chuqurlashtirish uchun tizimli va strategik yondashuv zarur.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Heathcote, D. & Bolton, G. (1995). Drama for Learning: Dorothy Heathcote's Mantle of the Expert Approach to Education. Heinemann.
2. Schewe, M. (1993). Teaching Foreign Language with Drama. Frankfurt: Peter Lang.
3. Neelands, J. (2009). Drama and Theatre in Education: Contemporary Research. Routledge.
4. Shakirova, N. (2020). "Teatr pedagogikasining boshlang'ich ta'limgagi o'rni." Ta'lim innovatsiyalari, №4.
5. Xudoyberganova, M.Q. (2023). "Teatr metodikasining kasbiy tayyorgarlikka ta'siri." O'qituvchi va zamон, №1.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi.
7. Bozorov, S. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. T.: TDPU nashriyoti.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.